



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **22,3** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,1** mingtaga kamaygan yoki **4,6** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,2** birlikni tashkil qildi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-sentabrida **3,2** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,2** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi

2020-2024- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
23 409	Namangan viloyati	22 324
7 279	Namangan sh.	6 907
1 999	Chust	1 951
1 698	Pop	1 665
1 659	Uchqo'rg'on	1 499
1 453	Chortoq	1 441
1 581	To'raqo'rg'on	1 427
1 509	Namangan	1 406
1 381	Kosonsoy	1 311
1 427	Uychi	1 273
1 169	Norin	1 174
1 180	Yangiqo'rg'on	1 171
1 074	Mingbuloq	1 099

2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **22 324** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 209** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **6 907** tani yoki jamiga nisbatan **30,9 %** ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Mingbuloq	12,4
Chortoq	10,6
Chust	10,2
Uchqo'rg'on	10,0
Namangan sh.	9,8
Pop	9,5
Namangan	9,0
Norin	8,6
Yangiqo'rg'on	7,9
To'raqo'rg'on	7,8
Kosonsoy	7,3
Uychi	6,9

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- oktabr holatiga, birlikda



2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **0,6** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **12,4** birlik, Chortoq tumanida **10,6** birlik, Chust tumanida **10,2** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **10,0** birlik va Namangan shahrida **9,8** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Mingbuloq tumani
– 12,4 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Namangan tumani
– 9,0 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Uychi tumani
– 6,9 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida 12,4 birlik, Chortoq tumanida 10,6 birlik, Chust tumanida 10,2 birlik, Uchqo'rg'on tumanida 10,0 birlik, Namangan shahrida 9,8 birlik, Pop tumanida 9,5 birlik, Namangan tumani 9,0 birlik va Norin tumanida 8,6 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Namangan shahrida

Chust tumani

Mingbuloq tumani

9,8

10,0

10,2

10,6

12,4

Uchqo'rg'on tumani

Chortoq tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

254	Mingbuloq	234
215	Kosonsoy	220
203	Namangan	123
203	Norin	181
252	Pop	254
302	To'raqo'rg'on	154
231	Uychi	151
344	Uchqo'rg'on	256
291	Chortoq	204
224	Chust	238
186	Yangiqo'rg'on	240
909	Namangan sh.	954

2024- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Namangan sh.	29,7
Uchqo'rg'on	8,0
Pop	7,9
Yangiqo'rg'on	7,5
Chust	7,4
Mingbuloq	7,3
Kosonsoy	6,9
Chortoq	6,4
Norin	5,6
To'raqo'rg'on	4,8
Uychi	4,7
Namangan	3,8


2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – **39,7** %, Uchqo'rg'on tumani – **8,0** %, Pop tumani – **7,9** %, Yangiqo'rg'on tumani – **7,5** %, Chust tumani – **7,4** %, Mingbuloq tumani – **7,3** %, Kosonsoy tumani – **6,9** %, Chortoq tumani – **6,4** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1 299** ta, sanoatda **629** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **295** ta yangidan tashkil etilgan.

Shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida **954** ta, Uchqo'rg'on tumanida **256** ta, Pop tumanida **254** ta hamda Yangiqo'rg'on tumanida **240** ta yangidan tashkil etilgan.


■ 2023- y. ■ 2024- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **20 713** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **8 037** (yoki **38,8 %**) ta, sanoat sohasida – **4 936** (yoki **23,8 %**) ta, xizmatlar sohasida – **4 080** (yoki **19,7 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 525** (yoki **12,2 %**) ta va qurilish sohasida – **1135** (yoki **5,5 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish




Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **74,3** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,3** punktga kamaygan.




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,3** % ni, yo'lovchi aylanmasida **95,8** % ni, qishloq xo'jaligida **95,1** % ni, yuk aylanmasida **94,6** % ni, qurilishda **93,2** % ni, yuk tashishda **92,4** % ni, chakana savdoda **92,3** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Namangan sh.	4319,3
Namangan	1051,3
Uychi	766,5
Kosonsoy	582,0
Pop	541,7
Norin	495,6
Chust	393,0
To'raqo'rg'on	320,3
Yangiqo'rg'on	292,6
Uchqo'rg'on	290,6
Mingbuloq	198,2
Chortoq	195,9

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **11 127,3** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**4 319,3** mlrd. so'm), Namangan (**1051,3** mlrd. so'm), Uychi (**766,5** mlrd. so'm), Kosonsoy (**582,0** mlrd. so'm) va Pop (**541,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Chortoq tumanida (**195,9** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2024- yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 51,3 % ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiyo'rg'on tumani (100,0 %), Norin tumani (99,9 %), Pop tumani (95,0 %), Namangan tumani (81,0 %), Uychi tumani (73,0 %), Namangan shahri (61,5 %) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Namangan sh.	1768,6	86,4
Uychi	705,3	91,0
Kosonsoy	446,1	86,3
Chortoq	422,2	100,0
Namangan	329,7	100,0
Uchqo'rg'on	306,3	100,0
Chust	298,6	100,0
Yangiqo'rg'on	278,5	98,7
Norin	261,1	100,0
To'raqo'rg'on	259,5	93,4
Mingbuloq	226,8	100,0
Pop	181,0	54,9

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **7 982,8** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,2** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **111,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**1 768,6** mlrd. so'm), Uychi (**705,3** mlrd. so'm), Kosonsoy (**446,1** mlrd. so'm), Chortoq (**422,2** mlrd. so'm), Namangan (**329,7** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**306,3** mlrd. so'm), va Chust (**298,6** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **23 431,5** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **76,3 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **227,4 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan shahri (**10 604,3** mlrd. so'm), Pop (**3832,6** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**1821,3** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**1245,5** mlrd. so'm), Namangan (**1010,3** mlrd. so'm), Chortoq (**976,7** mlrd. so'm) hamda Uychi (**909,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **22 639,4** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **102,5** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Yangiqo'rg'on (**3 754,0** mlrd. so'm), Chust (**2 224,1** mlrd. so'm), Namangan (**2 001,0** mlrd. so'm), Uychi (**1 898,4** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**1 853,4** mlrd. so'm), Pop (**1 805,6** mlrd. so'm) hamda To'raqo'rg'on tumanlarida (**1 793,0** mlrd. so'm) qayd etildi.

2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yangiqo'rg'on	3754,0	99,3
Chust	2224,1	99,6
Namangan	2001,0	95,2
Uychi	1898,4	98,0
Uchqo'rg'on	1853,4	95,6
Pop	1805,6	87,8
To'raqo'rg'on	1793,0	99,2
Chortoq	1728,1	99,4
Namangan sh.	1705,4	84,4
Mingbuloq	1332,4	83,9
Norin	1326,6	96,2
Kosonsoy	1217,3	99,2

hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, % da

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **15 223,6** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,3 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **107,9 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi


Namangan sh.	6325,2	90,2
Chust	1048,9	92,8
To'raqo'rg'on	959,6	92,2
Pop	920,9	91,4
Uychi	811,2	99,1
Norin	804,0	95,3
Yangiqo'rg'on	775,3	96,6
Kosonsoy	746,8	98,8
Uchqo'rg'on	664,9	97,9
Chortoq	638,1	92,6
Namangan	590,5	94,8
Mingbuloq	431,3	97,4

hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**6 325,2** mlrd. so'm), Chust (**1048,9** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**959,6** mlrd. so'm), Pop (**920,9** mlrd. so'm), Uychi (**811,2** mlrd. so'm), Norin (**804,0** mlrd. so'm) va Yangiqo'rg'on (**775,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Namangan sh.	3 196,5
Chust	795,7
Uychi	765,3
To'raqo'rg'on	732,4
Pop	702,6
Namangan	684,7
Chortoq	665,6
Yangiqo'rg'on	639,33
Kosonsoy	626,7
Uchqo'rg'on	593,9
Norin	558,1
Mingbuloq	482,2

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **21 966,7** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **75,1 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil Yanvar-sentabr oylariga nisbatan **114,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (**3 196,5** mlrd. so'm), Chust (**795,7** mlrd. so'm), Uychi (**765,3** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**732,4** mlrd. so'm), Pop (**702,6** mlrd. so'm), Namangan (**684,7** mlrd. so'm) va Chortoq (**665,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-sentabr oylarida)

10 053,9	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	45,8
5 009,6	Savdo xizmatlari	22,8
2835,5	Transport xizmatlari	12,9
1186,2	Shaxsiy xizmatlar	5,4
662,3	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,0
625,5	Boshqa xizmatlar	2,8
394,3	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1,8
331,0	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,5
260,6	Ijara xizmatlari	1,2
255,9	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,2
152,7	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,7
102,4	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,5
96,6	Moliyaviy xizmatlar	0,4

Hajmi, mlrd. so'mda



Ulushi, foizda

Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi Yashash va ovqatlanish xizmatlarida – **45,8 %** (**10 053,9** mlrd. so'm), savdo xizmatlarida – **22,8 %** (**5 009,6** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **12,9 %** (**2 835,5** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **5,4 %** (**1186,2** mlrd. so'm) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda **3,0 %** (**662,3** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi Moliyaviy xizmatlarda **0,4 %** (**96,6** mlrd so'm) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **207,3** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **47,1** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiqo'rg'on	11,9	100,0
Norin	19,1	100,0
Mingbuloq	3,6	100,0
Chortoq	3,4	92,3
Uychi	22,2	62,7
Namangan sh.	81,3	61,1
Namangan	10,1	58,5
Kosonsoy	18,5	29,9
To'raqo'rg'on	17,8	25,0
Pop	9,4	23,5
Uchqo'rg'on	2,9	21,2
Chust	5,7	20,7

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on, Norin, Mingbuloq tumanlarida – **100,0** %, Chortoq tumanida – **92,3** %, Uychi tumanida – **62,7** %, Namangan shahrida – **61,1** %, Namangan tumanida – **58,5** % ni tashkil qildi.

Eng past ko'rsatkich Chust tumanida – **20,7** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **338,4** million AQSH dollarini yoki jami importning **64,5** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Mingbuloq, Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0** %, Norin tumanida – **96,5** %, Pop tumanida – **96,2** %, Uychi tumanida – **94,3** %, Uchqo'rg'on tumanida – **84,1** % va Kosonsoy tumanida – **71,8** % ni tashkil etdi.


Mingbuloq	100,0
Yangiqo'rg'on	100,0
Norin	96,4
Pop	96,2
Uychi	94,3
Uchqo'rg'on	84,1
Kosonsoy	71,8
Namangan	68,4
Namangan sh.	66,9
Chortoq	62,5
Chust	27,8
To'raqo'rg'on	18,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,4 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,3 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,6 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,9 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,3 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,8 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,0 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2024- yil **III chorak** yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 075** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **319 (29,7 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **681 (63,3 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **75 (7,0 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,6 % (447 ta)**, xizmatlar sohasida – **28,8 % (309 ta)**, sanoatda – **16,8 % (181 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,7 % (72 ta)**, qurilishda – **6,1 % (66 ta)** ni tashkil etdi.

2024- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

55	Mingbuloq	5,1
57	Kosonsoy	5,3
56	Namangan	5,2
53	Norin	4,9
94	Pop	8,7
73	To'raqo'rg'on	6,8
63	Uychi	5,9
45	Uchqo'rg'on	4,2
74	Chortoq	6,9
79	Chust	7,4
39	Yangiqo'rg'on	3,6
387	Namangan sh.	36,0


Soni, ta

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (387 ta), Pop (94 ta), Chust (79), Chortoq (74 ta), To'raqo'rg'on (73 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning III choragida **267** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **319** taga yetgan yoki 2019- yilning III choragiga nisbatan **52** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **572** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida **681** ta yoki **109** taga ko'paygan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **80** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **75** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **5** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning **III choragida 602** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **III choragiga** kelib esa, **358** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **244** taga kamaygan

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning **III choragida 144** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **III choragida 543** ta yoki **399** taga oshgan

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019- yilning **III choragida 49** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning **III choragiga** kelib, bu ko'rsatkich **61** tani tashkil etib, **12** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning **III choragida 29,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa, **29,7** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **0,6** % oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilda **62,2** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **III choragida 63,3** % yoki **1,1** % ga ko'paygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **8,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **7,0** % ga yetgan yoki **1,7** % ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning **III choragida** 75,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa, 37,2 % ga yetgan yoki 2019- yilning **III choragida** nisbatan 38,5 % kamaygan.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning **III choragida** 18,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida 56,5 % yoki 38,4 % oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa, 2019- yilning **III choragida** 6,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning **III choragiga** kelib, bu ko'rsatkich 6,3 % yoki 0,1 % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Jami - 63,3



Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning **III choragida** o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **34,9** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **32,0** % ni, xizmatlar sohasida – **32,0** % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – **71,8** % ni, savdoda – **63,3** % ni, xizmatlar sohasida – **61,2** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – **12,1** % ni, savdoda – **7,2** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,9** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da

Jami - 55,0



2024- yilning **III choragida** kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **44,5 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **43,0 %** ni, xizmatlar sohasida – **41,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – **58,0 %** ni, qurilishda – **57,6 %** ni, xizmatlar sohasida – **56,6 %** ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,6 %** ni, sanoatda – **4,4 %** ni, qurilishda – **3,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	32,9	58,3	8,8
Band bo'lganlar soni	15,2	80,0	4,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,1	64,7	5,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	26,6	68,0	5,4
Raqobat muhiti	32,6	62,9	4,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	34,3	61,6	4,1
Band bo'lganlar soni	17,1	80,0	2,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,2	65,7	4,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	27,8	68,3	3,9
Raqobat muhiti	31,3	65,2	3,5


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli